| | |
|---|---|
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>U.Tursunov – NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri dotsenti, i.f.n.<br>U.Xolmirzayev– NamMQI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. PhD |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”**
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
________ Sh.T.Ergashev
2024 yil “____” __________

NamMQI
o‘quv-uslubiy boshqarma
№ 621
«3» 07 2024 y

# MOLIYAVIY HISOBOT 2

## FANINING O’QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400 000 | – Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohalari:** | 410 000 | – Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 70410101 | – Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

Namangan – 2024

| Fan/modul' kodi ADVFR8 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | Kredit 7,5 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Tanlov | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 6 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Moliyaviy hisobot 2 | | 90 (44 m/ 46 a) | 135 | 225 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Ushbu fan "Moliyaviy hisobot-2" deb nomlanib, unda iqtisodiyot sektorlarida moliyaviy hisobotning o'rni va ahamiyati, moliyaviy hisobot tuzishning asosiy tamoyillari, moliyaviy hisobotning asosiy shakllari va ko'rsatkichlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining buxgalteriya balansi tavsifi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapitali to'g'risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari holati, moliyaviy hisobotiga ilova qilinuvchi tushuntirish xatlarining xususiyatlari qamrab olgan. "Moliyaviy hisobot" fani talabalarning ushbu fanni chuqur o'rganishi buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, iqtisodiy tahlil hamda audit fanlari hamda xo'jalik sub'yektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

**Fanning vazifasi** xo'jalik yurituvchi sub'yektlari moliyaviy hisobotini tayyorlashga qo'yilgan talablar, asosiy shart-sharoitlari, ularning asosiy tamoyillari va qoidalarini; xo'jalik yurituvchi sub'yektlari moliyaviy hisobotidagi iqtisodiy atamalar, ularning mazmun hamda mohiyatini; xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mablag'lari, xususiy kapitali, moliyalashtirish manbalari, shuningdek o'z va jalb qilingan mablag'larining manbalarini holati va miqdor hamda turi jihatidan o'zgarishini bildiradigan axborot-larni tayyorlashda ro'y beradigan muommalarni hal etish malakalariga ega bo'lishini ta'minlaydi

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-muammolarni mustaqil o'rgana olish;

-tahlil uchun odatiy to'siqlarni (ichki va tashqi), xususan ijod fikrlashni aniqlash;

-gipotezalarni shakllantirishga qaratilgan olingan natijalar bo'yicha xulosa qilish va ularni empirik va eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslashni o'z ichiga olgan ilmiy metodni tushunish hamda qo'llash;



-bozor iqtisodiyoti faoliyatining asosiy tamoyillarini, me'yoriy ijobiy dalillar o'rtasidagi farqni, shuningdek, adolatlilik samaradorlik manfaatlarini tushunish;

-talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirish, baholash, baholashga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflash;

-iqtidorli ta'lim va iqtidorni rivojlantirishda tahliliy tafakkurning o'rni haqida fikr yuritish.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

**1-mavzu: Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari**

Bu mavzu doirasida hisob standartlarini ishlab chiqishda moliyaviy hisob konseptual asoslarining ahamiyati va muhimligi o'rganiladi. Korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini ochib beruvchi moliyaviy hisobot shakllarining asosiy maqsadini ya'ni korxona raxbariyatiga korxonaning resurslarini baholash va moliyaviy hisobot tuzishdagi cheklanishlar haqida ma'lumotlar berish va ularni baholashda yordam berishinin o'rganiladi. Moliyaviy hisobotni tuzishda foydalaniladigan moliyaviy ma'lumotlarning sifat ko'rsatkichlari o'rganiladi. Moliyaviy hisobotda mulohazakorlik va mazmunning shakldan ustunligi tushuntiriladi. Raxbariyat tomonidan aktiv va majburiyatlarni tan olish, hisobdan chiqarish va ularni baholashda qabul qilingan qarorolarni baholash va ularni tahlil qilish o'rganiladi.

**2-Mavzu: Hisob standartlariga amal qilishda buxgalterning kasbiy (professional) va ahloqiy majburiyatlari**

Professional buxgalterlar axloq kodeksi. Buxgalteriya hisobi faoliyatini amalga oshirishga qo'yiladigan talablar. Xolislik uchun axloqiy talablar. Kasbiy majburiyatlarning ziddiyatlari. Kasbiy malakaga ega bo'lish bosqichlari. Professional buxgalterning majburiyatlari. Korxona hisobotlarinin tayyorlashda ahloqiy qoidalarga amal qilmaslikning oqibotlarini baholash. Mamlakat tashqarisida xizmatlar ko'rsatish. Buxgalter va mijoz o'rtasidagi professional munosabatlarning xususiyatlari.

**3-mavzu: Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish**

Moliyaviy hisobotlarning maqsadi. Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami. Moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari. Moliyaviy hisobotning taqdim etish davomiyligi. Tuzilishi va mazmuni. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot. Foyda va zararlar hamda boshqa umumlashtirilgan daromadlar to'g'risidagi hisobot. Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. Izohlar va hisob siyosatini yoritib berish.

**4-mavzu: Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot**

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi

hisobotning tarkibi. Foyda yoki zarar bo'limida yoki foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda taqdim etiladigan ma'lumotlar. Boshqa umumlashgan daromadlar bo'limida aks ettiriladigan ma'lumotlar. Davr foydasi yoki zarari. Davr uchun boshqa umumlashgan daromadlar. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot(lar)da yoki izohlarda aks ettiriladigan ma'lumotlar.

**5-mavzu: Daromad**

Korxona tomonidan daromadni tan olishdan oldin javob beradigan kreteriyalarni baholash. Hairdo bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha daromad bilan bog'liq besh bosqichli model. Shartnoma xarajatlarini aktiv sifatida tan olish mezonlari. Ma'lum bir vaqt davomida majburiyatlarni bajarishdan oliandigan daromadlarni o'lchash va tan olish. Qaytarib olish sharti bilan sotish. Kafolatlar. Sotuvchi va diller. Qaytarilmaydigan oldindan to'lovlar.

Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad. Daromadni baholash. SHartnoma bo'yicha aktivlar. Operatsiyalarni aniqlash. Tovarlarni (mahsulotlar) sotish. Hizmatlarni ko'rsatish. Foizlar. Royalti. Dividendlar. SHartnoma bo'yicha majburiyatlar. Xaridorlar. Daromad. Tushum. SHartnomalarni identifikatsiya qilish. SHartnomalarni umumlashirish. SHartnomalarni modifikatsiyalash. Majburiyatlarni bajarish. Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha kelishuvlar. Aloxida tovarlar va xizmatlar. Majburiyatlarni bajarilishini baholash. Operatsiyalar qiymatini baholash. SHartnomalarni moliyalashirish. SHartnoma bo'yicha xarajatlar.

**6-mavzu: Uzoq muddatli aktivlar**

Uzoq muddatli aktivlarni baholash. Uzoq muddatli aktivlarni tan olish. Uzoq muddatli aktivlarni hisobdan chiqarish Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash va qadrsizlanishini hisobga olish. Uzoq muddatli aktivlarni sotish uchun mo'ljallangan aktivlar sifatida tasniflashda qo'yiladigan hisob talablari. Aktivlarni sotib olish yoki yaratishda olingan qarzlar bo'yicha xarajatlarni kapitallashtirish muomalalari. O'zida yaratilgan nomoddiy aktivlarni baholash, shuningdek ularni sotib olishdagi xarjatlarni tan olish va hisobda aks ettirish. "Asosiy vositalar" 16-son BHXSga muvofiq asosiy vositalarni tan olish va baholash. Boshlang'ich xarajatlar. Keyinchaliq amalga oshiriladigan xarajatlar. Asosiy vositalarni qayta baholash modeli. Eskirish hisoblanadigan qiymat va davr. Qadrsizlanish. Hisobdan chiqarish. "Nomoddiy aktivlar" 38-son BHXS. Aniqlash. Nazorat. Kelgusi iqtisodiy naflar. Tan olish va baholash. Aloxida sotib olish. Biznes birlashuvida nomoddiy aktivlarni sotib olish. Ichki yaratilgan gudvill. Tadqiqot bosqichi. Tajriba-konstruktorlik bosqichi. Xarajatlarni tan olish. Foydali xizmat muddati. Amortizatsiya usuli va davri. Tugatish qiymati.

**7-mavzu: Qishloq xo'jaligi va xom ashyo materiallari**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki biologik aktivlarni dastlabki baholash



va ularning hisobi bo'yicha asosiy tamoyillar. Xom ashyo materiallarni dastlabki tan olish va ularning hisobidagi asosiy tamoyillar. Tovar-modiy zaxiralarni baholash. Sof sotish qiymati. Haqqoniy qiymat. Tannarxni aniqlash formulasi. Biologik aktivlar.

**8-mavzu: Ijara**

Lizingni tan olishda lizingga olish talablariga javob berish. Lizing oluvchi va lizingga beruvchi tomonlar.Foydalanish huquqidagi aktiv va uning majburiyatini o'lchash va baholash. "Ijara" 16-son MHXSning maqsadi va faoliyat doirasi. Ijarani aniqlash. Ijara shartnomasi. Ijarachi. Ijaraga oluvchi. Ijara muddati. Indentifikatsiyalangan aktiv. Ijrani tan olish. Moliyaviy ijara. Operatsion ijara. Ijarani qaytarish. Ijara majburiyatlarini baholash. Dastlabki qiymatda baholash modeli. Ijara sharoitida majburiyatlarni qayta baholash. Ijara shartnomalarini modefikatsiyalash. Taqdim etish.

**9-mavzu: Xodimlarni rag'batlantirish**

Xodimlarga beriladigan qisqa va uzoq muddatli imtiyozlari va rag'batlari hisobi. Beriladigan yordamlar rejalashtirilgan mehnat ta'tili va nafaqalarni hisobini yuritish. Ishdagi qisqartirishlar va kelishuvlardagi daromad va zararlar hisobi. "Xodimlarni rag'batlantirish (daromadlari)" 19-son BHXSning maqsadi va faoliyat doirasi. Xodimlarning daromadlari. Xodimlarning qisqa muddatli daromadlari. Bandlikdan-so'nggi nafaqalar. Xodimlarning boshqa uzoq muddatli daromadlari. Ishdan bo'shatish nafaqalari. Sof belgilangan nafaqalar bo'yicha majburiyat (aktiv). Belgilangan nafaqalar bo'yicha majburiyatning keltirilgan (diskontlangan) qiymati. Xodimlarning uzoq muddatli daromadlarini to'lash bo'yicha fond egalik qiladigan aktivlar. Ma'lum talablarga javob beradigan sug'urta polisi. Xodimlarning barcha qisqa muddatli daromadlari. Qisqa muddatli ishlamagan vaqt uchun to'lovlar. Foydada-qatnashish va mukofot tizimlari. Ko'p sonli ish beruvchilar tizimlari. Sug'urtalangan nafaqalar

**10-mavzu: Aktsiyaga asoslangan to'lov**

Aksiyaga asoslangan to'lov muomalalarini tan olish va ularning hisobi. "Aktsiyaga asoslangan to'lov" 2-son MHXSning maqsadi va faoliyat doirasi. Tan olish. Ulushli instumentda hisoblanadigan aktsiyaga asoslangan to'lov operatsiyalari. Hizmatlar qabul qilinadigan operatsiyalar. Korxona uchun xizmatlar. Taqdim etiladigan moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymatini aniqlash. Huquqlarning o'tish shartlarini hisobga olish. Pul mablag'lari ko'rinishida aktsiyalarni to'lash. Aktsiyalarga to'lovlarni hisoblashda soliqlar. Taqdim etilgan ulushli instrumentlarning haqqoniy qiymati asosida baholangan operatsiyalar. Ulushli instrumentlar taqdim etilgan shartlarning o'zgarishi, shu jumladan bekor qilishlar va hisob-kitoblar. Pul mablag'ida hisoblanadigan aktsiyaga asoslangan to'lov operatsiyalari.

**11-mavzu: Hisobot davridan keying xodisalar (kutilmalar, shartli aktivlar va majburiyatlar)**

Kutilmalarni baholash, tan olish, hisobdan chiqarish, shuningdek shartli aktivlar va majburiyatlarni tan olish va hisobdan chiqarish. Atrof muhitdagi o'zgarishlarga qilingan kutilmalarni o'z ichiga oluvchi shartli aktivlar va majburiyatlar. Hisobot sanasidan keyin sodir bo'lgan xodisalar hisobi. "Hisobot davridan keyingi xodisalar" 10-son BHXSning maqsadi va amal qilish doirasi. Hisobot daridan keyingi xodisalar. Hisobot davridan keyingi, tuzatishlar kiritilishini talab etadigan hodisalar. Hisobot davridan keyingi, tuzatishlar kiritilishini talab etmaydigan hodisalar. Dividendlar. Ma'lumotlarni ochib berish.

**12-mavzu: Moliyaviy instrumentlar**

Moliyaviy instrumentlarni taqdim etish. Moliyaviy aktiv. Moliyaviy majburiyat. Ulushli instrument. Haqqoniy qiymat. Qayta sotiladigan instrument. Moliyaviy instrumentlarni tan olish va baholash. Moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning amortizatsiyalangan qiymati. Samarali foiz stavkasi. Qat'iy kelishuv. Rejalashtirilgan operatsiya. Amortizatsiyalangan qiymatda baholangan moliyaviy aktivlar bo'yicha qadrsizlanish va umidsiz qarzlar. Xejlash instrumentlari. Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar klassifikatsiyasi. Baholash.

**13-mavzu: Soliqqa tortish**

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari va aktivlarni tan olish va ularni baholash. Joriy va kechiktirilgan soliqni daromad yoki xarajat sifatida tan olish. Biznes birlashuvidagi kechiktirilgan soliq hisobi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha foyda. Soliq solinadigan foyda (soliq zarari). Soliq xarajati (soliq daromadi). Joriy soliq. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari. Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari. Vaqtinchalik farqlar. Soliq bazasi. Joriy soliq majburiyatlari va aktivlarini tan olish. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va aktivlarini tan olish. Kelgusida chegiriladigan vaqtinchalik farqlar. Soliq aktivlarini qayta ko'rib chiqish. Biznes birlashuvida paydo bo'ladigan muddati uzaytirilgan soliq. Aktsiyalarga asoslangan to'lovlar bo'yicha yuzaga keladigan joriy va muddati uzaytirilgan soliqlar. Soliq xarajati va ma'lumotlarni ochib berish.

**14-mavzu: Segmentlar bo'yicha hisobot**

Hisobot qilinadigan segmentlarning yo'nalishlari va hajmini aniqlash. Oshkor etilishi kerak bo'lgan segment ma'lumotlarining mohiyati. Segmental axborot sifatini oshirish. Hisobot qilinadigan segmentni aniqlash. Muammoli bo'limlar. Operatsion segment. Ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlari. Miqdoriy chegaralar. Umumiy xarajatlar. Segmentlar ichidagi sotuvlar hisobi.



Boshqaruv yondashuvi.

**15-mavzu: Birgalikda faoliyat bo'yicha kelishuvlar**

Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv (11-son MHXS). Birgalikdagi nazorat. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvning tuzilishi. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar turlari. Qo'shma faoliyat. Qo'shma korxona. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv tomonlarining moliyaviy hisobotlari. Aloxida moliyaviy hisobotlar.

**16-mavzu: Yangi hisob standartlarini qo'llash**

Yangi hisob standartlarini birinchi martta qo'llashning buxgalteriya oqibatlari. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini birinchi martta qo'llash. Moliyaviy hisobot xalqaro standarti 1 (Moliyaviy hisobot xalaqaro standartlarini birinchi martta qo'llash) mazmuni. MHXSlariga o'tish sanasi. MHXSlariga o'tishning hisobot yilida ko'rsatilishi kerak bo'lgan tushuntirishlar, izohlar va ilovalar. Daromadlar va yo'qotishlar to'g'risida hisobot berish.

**17-mavzu: Guruhlashgan moliyaviy hisobot**

Guruhlashgan moliyaviy hisobot tushunchasi. Guruhlashgan moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlari. Bosh korxona. SHo"ba korxona. Guruhlashgan moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari. Guruhlashgan moliyaviy hisobotni elementlari va ishtirokchilari. Guruhlashgan moliyaviy hisobot shakllari. Guruhlashgan moliyaviy hisobotni qayta shakllantirish va restrukturalash. Guruh tarkibidagi o'zgarishlar.

Bosqichma-bosqich birlashishga erishilgan korxonalarni birlashtirish bilan bog'liq buxgalteriya hisobi tamoyillari. Nazoratning yo'qolishi va egalik qilish foizidagi o'zgarishlarning oqibatlari. Faoliyati to'xtatilgan yoki sotib olingan yoki davr ichida tasarruf qilingan bo'lsa guruh moliyaviy hisobotlarini tayyorlash. Keyinchalik sotib yuborishi asnosida egalik qilinayotgan qaram xo'jalik jamiyatlari hisobi. Nazoratning yo'qolishi. Nazorat qilinmaydigan ulush.

MHXS 5 Sotishga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va to'xtatilgan faoliyatlar.

**18-mavzu: Haqqoniy qiymatni baholash**

"Haqqoniy qiymatni baholash" 13-son MHXSning maqsadi va qo'llash doirasi. Haqqoniy qiymatni ta'rifi. Aktiv va majburiyat. Operatsiya. Bozor ishtirokchilari. Narx. Nomodiyaviy aktivlarga nisbatan qo'llash. Majburiyatlarga va tadbirkorlik sub'ektining o'z ulushli instrumentlariga nisbatan qo'llash. Majburiyatlarni bajarmaslik riski. Bozor risklari yoki kontragent kredit riskidagi o'zaro hisob-kitob qilish holatlariga ega moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarga nisbatan qo'llash. Baholash usullari. Haqqoniy qiymatning ierarxiyasi.

### 19-mavzu: Xorijiy valyuta

Valyuta kursi. Xorijiy valyuta. Xorijdagi bo'linma. Haqqoniy qiymat. Funktsional valyuta. Guruh. Monetar moddalar. Xorijdagi bo'linmaga sof investitsiya. Taqdim qilish vadyutasi. Spot valyuta kursi. Kurs farqlarini tan olish. Funktsional valyutaning o'zgarishi. Xorijdagi bo'linma bo'yicha ma'lumotlarni bir valyutadan boshqa valyutaga o'tkazish. Barcha kurs farqlarining soliqqa nisbatan ta'sirlari.

### 20-mavzu: Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

Konsolidatsiyalashgan pul oqimlari to'g'risidagi hisoboti. Pul mablag'lari. Pul mablag'larining ekvivalentlari. Pul oqimlari. Operatsion faoliyat. Investitsion faoliyat. Moliyaviy faoliyat. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni taqdim etish. Operatsion faoliyat bo'yicha hisobotlarni taqdim etish. Investitsion faoliyat bo'yicha hisobotlarni aks ettirish. Pul oqimlarini sof asosida aks ettirish. Xorijiy valyutadagi pul oqimlari. Foizlar va dividendlar. Foyda soliqlari. Pul mablag'lari xarakatlanmaydigan operatsiyalar. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish.

### 21-mavzu: Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

Konsolidatsiyalashgan pul oqimlari to'g'risidagi hisoboti. Pul mablag'lari. Pul mablag'larining ekvivalentlari. Pul oqimlari. Operatsion faoliyat. Investitsion faoliyat. Moliyaviy faoliyat. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni taqdim etish. Operatsion faoliyat bo'yicha hisobotlarni taqdim etish. Investitsion faoliyat bo'yicha hisobotlarni aks ettirish. Pul oqimlarini sof asosida aks ettirish. Xorijiy valyutadagi pul oqimlari. Foizlar va dividendlar. Foyda soliqlari. Pul mablag'lari xarakatlanmaydigan operatsiyalar. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish.

### 22-mavzu: Tahlil va sharhlash

Moliyaviy va nomoliyaviy samaradorlikning tegishli ko'rsatkichlari. Aksiyalar uchun daromad va qo'shimcha samaradorlik o'lchovi. Korporativ hisobotlarda shaffoflikka bo'lgan talabning ortishi va moliyaviy bo'lmagan hisobot standartlarining paydo bo'lishini. Ekologik, ijtimoiy va axloqi hisobot omillarning samaradorlikni o'lchashga ta'siri. Konsolidatsiyalashgan hisobot uchun joriy asosni, shu jumladan Konsolidatsiyalashgan hisobotning maqsadlari, tushunchalari, asossiy tamoyillari va mazmuni. Daromadlilik. Yalpi foyda marjasi. Operatsion foyda marjasi. Kapital rentabilligi. Likvidlik va aylanma kapital. Debitorlik qarzlarini undirish davri. Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik. BHXS 33 Bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromad.

## III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun kuyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari
2. Hisob standartlariga amal qilishda buxgalterning kasbiy (professional) va



ahloqiy majburiyatlari)

3. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish
4. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot
5. Daromad
6. Uzoq muddatli aktivlar
7. Qishloq xo'jaligi va xom ashyo materiallari
8. Ijara
9. Xodimlarni rag'batlantirish
10. Aktsiyaga asoslangan to'lov
11. Hisobot davridan keying xodisalar (kutilmalar, shartli aktivlar va majburiyatlar).
12. Moliyaviy instrumentlar
13. Soliqqa tortish
14. Segmentlar bo'yicha hisobot
15. Birgalikda faoliyat bo'yicha kelishuvlar
16. Yangi hisob standartlarini qo'llash
17. Guruhlashgan moliyaviy hisobot
18. Haqqoniy qiymatni baholash
19. Xorijiy valyuta
20. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
21. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
22. Tahlil va sharhlash
23. Tahlil va sharhlash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llaniladi.

## IV. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan

## V. Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlar

Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlar mavzular:

1. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning konseptual asoslari
2. Moliyaviy hisobot tarkibi va uni tayyorlash metodikasi
3. Hisob siyosatining tahlili
4. MXXS asosida hisobot tayyorlashning normativ talablari
5. Investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy axbortlarni tayyorlashda

| | |
|---|---|
| | koeffitsientlar tahlilining roli va salmog'i<br>6. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda soliq hisobi<br>7. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda auditning roli<br>8. Aksiyadorlik jamiyalarida moliyaviy hisobotni tayyorlash texnikasi<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>-Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan xarajatlar, byudjetlashtirish va qarorlarni qabul qilish usullari bo'yicha ilg'or bilimlarni namoyish etadi.<br>- Moliyaviy hisobot 2 fanining nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilg'or bilimlarni namoyish etish, shu jumladan yangi tashkilotlarda strategik boshqaruv hisobi, xarajatlarni boshqarish va boshqaruv hisobi va boshqarish masalalari.<br>-Moliyaviy hisobot 2 fanining buxgalteriya amaliyotini turli tashkiliy sharoitlarda, ayniqsa aniq amaliy tadqiqotlar orqali tushunish va tushuntirish.<br>-Faoliyatni o'lchash modellari, boshqaruv nazorati va uzatish narxlari va yangi amaliyotning tarqalishi jarayonlari kabi fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni namoyish etish.<br>- Moliyaviy hisobot 2 fanining murakkab masalalarini tushuntirish va menejerlarni zamonaviy buxgalteriya hisobida qanday qilib yaxshiroq tushunish / qo'llash mumkinligiga ishontirish uchun taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish malakasiga ***ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni echish;<br>• so'rov o'tkazish. |



| | |
|---|---|
| 5. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'gri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test sinovlarini topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>**1** Egamberdieva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.<br>**2** Karimov A., Muqumov Z, Tulaev M., Kurbanbaev J., Raxmonov SH. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.<br>**3** Kuljonov O., Ortiqov X., YUgay L., Tuxsanov X., M.Xayitboev Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –246 b.<br>**4** Norbekov D., Misirov K., Tashmanov /. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –194 b.<br><br>**Qo`shimcha adabiyotlar**<br>**1** O'zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasi–T.:O'zbekiston,2023.<br>**2** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o'rganish.<br>**3** Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.<br>**4** Jumanazarov S., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami. –T.: TMI, 2018.<br>**5** Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1.www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2.www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3.www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko'rsatkichlar sayti |
| 7. | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul' uchun ma'sullar:**<br>I. Sirojiddinov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, i.f.n. |